QASHQADARYO BAXSHICHILIK SAN’ATINING HUDUDIY XUSUSIYATLARI

Fozil Qo‘yboqarov

Qarshi davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

https://orcid.org/0009-0006-4814-4114

fozil1226@gmail.com

tel:919531216

***Kalit so‘zlar**: baxshi, doston, baxshichilik, dostonchilik an’analari, xalq dostonlari, dostonchilik maktablari, Shahrisabz dostonchilik maktabi, Qamay dostonchilik maktabi, Chiroqchi dostonchilik maktabi*

***Ключевые слова:** бахши, эпос, бахшики, эпические традиции, народный эпос, эпические школы, шахрисбазская школа эпоса, камайская школа эпоса, чиракчинская школа эпоса*

***Key words:** bakhshi, epic, bakhshi, traditions of epics, folk epics, schools of epics, Shahrisbaz school of epics, Kamay school of epics, Chirakchi school of epics*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Qashqadaryo vohasi baxshichilik san’atining hududiy xususiyati va o‘ziga xos jihatlari tarixiy manbalar asosida bayon etilgan.*

***Аннотация.** В данной статье на основе исторических источников описываются территориальные особенности и специфические аспекты искусства Кашкадарьинского оазиса.*

***Abstract.** In this article, the territorial characteristics and specific aspects of the art of the Kashkadarya oasis are described based on historical sources.*

O‘zbekistonning janubiy hududlarida shakllangan dostonchilik maktablari o‘zining lokal xususiyatlari bilan yurtimizdagi boshqa dostonchilik maktablaridan farq qiladigan xususiyatga ega. Jumladan, ushbu maktab nomoyondalari do‘mbira jo‘rligida dostonlarni va termalarni asosan bug‘iq ovozda ijro etishadi. Qolaversa, Qamashi, Qamay va Chiroqchi dostonchilik maktablari vakillari tomonidan kuylab kelingan “Malla savdogar”, “Balxuvon”, “Zaydaqul”, “Qo‘ng‘iriyot”, “Xonimoy”,

“Ollonazar Olchinbek”, “Xurso‘na”, “Toshbosar” dostonlari boshqa dostonchilik maktablarining repertuarida uchramaydi.

“Alpomish” dostoni xalqimizning tarixiy qahramoni va asriy orzu-armonlarini ifodasi bo‘lib, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li va boshqa baxshilar aytgan variantlari islom dini paydo bo‘lgandan keyingi variantlari hisoblanib, yuzlab baxshilar dostonni yaratishda ishtirok etib, uning ilk boshlanishi Alp Ertunga bobolarimiz hayoti va kurashiga borib taqaladi. “Alpomish” dostonini to‘la variantlarini yaratishda Xushboq baxshi Mardonoqul o‘g‘li, Chorsha baxshi Rahmatulla o‘g‘li, Qora baxshi Umirov, Shoberdi baxshi Boltaevlarning xizmatlari katta bo‘ldi.

XX asrda Shahrisabz dostonchilik maktabi epik markazlardan biri bo‘lgan. Bu maktabning ayrim xususiyatlari davrimizning yetakchi baxshilaridan bo‘lgan Abdulla Nurali o‘g‘lining (1874-1954 yillar Kitob rayon, Qaynar qishlog‘i) ijodi va repertuarida saqlanib qolgan. Bu maktabga mansub baxshilar dostonlarni sho‘x, quvnoq, ko‘tarinki ruhda kuylashlari, kuylarning yoqimliligi bilan ajralib turadilar. Abdulla shoir XIX asrning Shahrisabzlik mashhur dostonchilari Xidir shoir, Ernazar shoirlar bilan bog‘liq bo‘lgan Rajab shoirning shogirdi hisoblanadi. Abdulla shoir ijrosi folkloristlar tomonidan ko‘p kuzatilgan bo‘lsa-da, uning repertuaridagi o‘ndan ortiq doston deyarli yozib olinmagan. Shoirdan umrining so‘nggi yillarida yozib olingan “Alpomish” dostoni u kuylab kelgan variant xususiyatlarini o‘zida mukammal saqlay olmagan. Ammo, uning boshqa baxshilardan farq qiluvchi ijro usullarining o‘ziyoq bizga Shahrisabz dostonchilik maktabi haqida muayyan tassavvur bera oladi.

O‘tgan asrda Qashqadaryo viloyat Qamashi tumanining Qamay qishloqlari bilan bog‘liq dostonchilik maktabi ham bo‘lgan. Qamay dostonchilik maktabi Qamashi tumani, Dehqonobod va G‘uzor tumanlarining unga tutash yerlarida yetishgan baxshilarni birlashtirgan. Qamay dostonchilik maktabi Shahrisabz dostonchilari bilan yaqin aloqada bo‘lgan. Qamay dostonchilik maktabidan oltmishdan ortiq baxshi o‘tgan ekan.

XIX asrning II yarmi va XX asr boshlarida Mulla Xolnazar, Oynazar, Jo‘ra baxshi, To‘lak shoir, Shomir, Elmurod ko‘r degan iste’dodli baxshilar Qamay dostonchilik maktabining vakillari bo‘lishgan. Chiroqchi dostonchilik maktabining shakllanishi XVIII asrning oxiri – XIX asrning boshlarida Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi Qamay qishlog‘ida yashab ijod qilgan Oynazar baxshi o‘z davrining yetuk so‘z ustalaridan biri bo‘lib, o‘sha davrda ijod qilgan Shomir shoir, Elmurod qori kabi baxshilar bilan birgalikda Qamay dostonchilik maktabiga asos solgan ijodkor hisoblanadi. Uning o‘g‘li Erka oqsoqol ham yetuk baxshi bo‘lgan.

Rustam shoir XX asrning boshlarida Chiroqchining “Qipchoq saroy” qishlog‘ida yashab ijod qilgan atoqli baxshilardan biri Rustam baxshi “Go‘ro‘gli” turkumi dostonlarini maromiga yetkazib kuylashi bilan mashhur bo‘lgan. Folklorshunos olim A.Qahhorovning aniqlashicha, Rustambaxshi bekning oldida “Go‘ro‘g‘li” turkumiga mansub 32 dostonni 90 kun davomida ijro etgan ekan.

Iskandar baxshi XIX asrning o‘rtalarida Qamashi tumanining To‘qboy qishlog‘ida yashagan zukko baxshilardan biri bo‘lgan. Chiroqchi, Qamashi va Jom shoirlar uning ijodiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Uning o‘zi ham ko‘pgina yetuk baxshilarga ustozlik qilgan. Jumladan, Chiroqchilik Qirq urug‘iga mansub Rajab baxshi va To‘ra baxshiga ustozlik qilish orqali Chiroqchi dostonchilik maktabi an’analarining rivojiga munosib hissa qo‘shgan. To‘ra baxshi esa Mardon shoirni, Rajab baxshi Abdulla Nurali o‘g‘lining ustozi hisoblanadi. Shu tariqa Chiroqchi dostonchilarining shajarasi shakllangan.

XIXasrning yirik baxshilaridan biri hisoblangan Abdukarim juyruk so‘zga g‘oyat chechan, hozirjavob va badiha iqtidori baland shoir bo‘lgan. Professor T.Mirzaevning aniqlashicha, Qamashi tumanining Qoraqo‘ton qishlog‘ida istiqomat qilgan bu baxshi haqida xalq orasida shunday naql mavjud: Kunlardan bir kuni Buxoro amiri Muzaffarxon Qarshi shahriga kelganida Abdukarim juyrukni huzuriga chaqirtiradi. Ammo baxshi o‘sha paytda og‘ir betob ekanligini bilgach, "Sajaraga solib olib kelinglar - deb amr qiladi. Shunda Abdukarim juyruk o‘zining shogirdi Xidir baxshini chaqirib, “Men Abdukarim” deb amir huzuriga borishni, “Alpomish”,

“Go‘ro‘g‘li” dostonlaridan kuylamay, amirning Qarshiga kelishini maqtashni tayinlagan ekan. Buytib jo‘nadi, janobi oliy, - deya amirning kundalik hayotidagi oddiy voqealarni kuylagan ekan. Uning mahoratiga qoyil qolgan amir Xidir baxshiga "cho‘rog‘asi" unvonini bergan deydilar. Abdukarim juyruk ko‘plab shogirdlarni tarbiyalagan bo‘lib, XIX asrda yashagan Mulla Xolnazar (Sartbugajili qishlog‘idan), Xidir baxshi, To‘lakshoir (Ulmas qishlog‘idan bo‘lib, Mamatqori baxshining otasi va ustozi), Elmurod baxshi (Qorapo‘choq qishlog‘idan), Bobonazar shoir (Qorapo‘choq qishlog‘idan) ana shu baxshining ijodiy an’analarini davom ettirishgan. Uning nabirasi Murod shoir Xo‘jayor o‘g‘li ham o‘z davrining so‘zamol baxshilaridan bo‘lgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshida Qashqadaryo viloyatining Sarbugajili qishlog‘ida yashab ijod qilgan bu Xolnazar baxshi xalq orasida “mulla Xolnazar” nomi bilan mashhur bo‘lgan. Baxshilar orasida keng tarqalgan rivoyatga ko‘ra, birorta baxshi-shoir mulla Xolnazarning oldida doston kuylaganda she’riy bandlarni tugal qilib aytmasa, qofiyalarga e’tibor bermay, soktalikka yo‘l qo‘ysa, uni darhol kuylashdan to‘xtatib, tanbeh berar ekan. Chunki dostonlarni dutorda maromiga yetkazib. chiroyli qilib kuylagan mulla Xolnazar har bir bandning to‘rt qatordan tugal bo‘lishiga, qofiyasi mukammal chiqishiga. misralarda so‘zlarning o‘z o‘rnida qo‘llanilishiga alohida e’tibor berar ekan. Xolnazar baxshi 1910 yilda vafot etgan.

Chiroqchi dostonchilik maktabi an’anasini davom etirishda, ustozlikda Mahman shoirning o‘g‘li Mardon shoir (1880-1919)ning shuhrati baland bo‘lgan. U Chiroqchi va Ko‘kdala (hozirgi Yakkabog‘ tumani) tumanlari va Samarqandda o‘ndan ziyod shogird yetishtirgan. Samarqand baxshilari orasida ham hurmat qozongan. Mardon shoir o‘ttiz to‘qqiz yoshida vafot etadi. Undan hech narsa yozib olib qolinmagan.

XIX asrda yirik epik markazlardan biri bo‘lgan Shahrisabz dostonchilik maktabining o‘ziga xos xususiyatlari XX asrning yetakchi dostonchisi Abdulla Nurali o‘gli ijodi va repertuarida saqlanib qolgan. Abdulla shoir Nurali o‘gli

Qatagon urugidan bo‘lib, 1874 yilda Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi Qaynar qishlogida tug‘ilgan. Yoshligida ota-onadan yetim qolib, o‘gay akalarining qo‘lida tarbiyalangan Abdulla shoir o‘n besh yil cho‘pon bo‘lib xizmat qilgan. Qo‘y boqib yurganida cho‘pon do‘stlaridan do‘mbira chertishni, xalq orasida keng ommalashgan an’anaviy terma va qo‘shiqlar aytishni o‘rgangan. Cho‘ponlar orasida usta do‘mbirakash sifatida tanilgan. 21 yoshida kichik-kichik termalar, she’rlar ijod eta boshlagan. Atoqli ustoz baxshilardan doston aytish usullari, baxshichilik sir-asrorlari va dostonlar matnini puxta o‘zlashtirgan. Shu tariqa u 25 yoshida doston aytuvchi yetuk baxshi bo‘lib yetishdi. Abdulla shoirning baxshi bo‘lib shakllanishida Chiroqchi tumanining Quchchi qishlog‘idan bo‘lgan Rajab shoirning xizmatlari katta bo‘lgan.

U XIX asrda yashagan Shahrisabzlik baxshi-shoirlar bilan mustahkam ijodiy aloqada bo‘lgan, ayniqsa, Ernazar shoir bilan ko‘p muloqotda bo‘lgan. Rajab shoir o‘z davrining atoqli, chechan, bilimdon baxshilaridan bo‘lib, shogird yetishtirishda nom qozongan edi. Rajab shoir 1901 yilda Qaynarga kelganida Abdulla shoir uning huzuriga borib, do‘mbira chertib bergan. Abdullaning mohirligiga qoyil qolgan ustoz baxshi uni o‘zi bilan birga bir yil muddatga Chiroqchiga olib ketib, tarbiyalagan. Tirishqoqligi, katta iste’dodi va zo‘r havasi, kuchli hofizasi natijasida qisqa vaqt ichida ustozi Rajab shoir repertuaridagi doston va termalarni, doston ijrochiligi usullarini o‘zlashtirib, 25 yoshida mustaqil doston aytadigan baxshi bo‘lib yetishdi. Xalq tomonidan “shoir” nomi berilib, “Abdulla shoir” deb ataldi.

Abdulla shoir shu bilan to‘xtab qolmasdan, Kitob shahri va uning atrofida yashovchi taniqli baxshi-shoirlardan so‘z san’atining go‘zal namunalarini o‘rganib olib, o‘zining badiiy xazinasini boyitdi, dostonlarni qayta ishlab. badiiy jihatdan sayqal berdi. Doston qo‘shiqlariga moslab yangidan-yangi sho‘x, quvnoq vazn va kuylar yaratdi. Ayniqsa, qahramonlik dostonlarini el orasida quvnab, qaynab, jo‘shib ijro etdi. “Alpomish”, “Sohibqiron”, “Kuntug‘mish”, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Avazxon”, “Xilaman”, “Malikaiayyor”, “Saydimxon”, “Yusuf bilan Ahmad” kabi

bir qancha dostonlarni aytib kelgan Abdulla shoir Nurali o‘g‘li dostonlarni sho‘x kuylashi, do‘mbira kuylarining yoqimliligi bilan ajralib turgan.

Xullas, Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz, Kitob, Chiroqchi, Dehqonobod dostonchilik maktablari o‘zining ijro uslubi va aytish yo‘nalishlari bo‘yicha bir birlaridan ma’lum darajada farq qilgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Ergashev A. Qora baxshi Umirov mahorati. – T., 2006.

Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. (Eng qadimdan islomgacha bo‘lgan davr). – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2005.

Ergashev A., Omonova G. Dostonlarda ayrim urf-odatlar va milliy qadriyatlar. – Qarshi: “Nasaf”, 2000

Ergashev A. Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligi. – Toshkent: “Fan”, 2008

Axmedova G. “O‘zbekistonning janubiy hududlarida baxshichilik an’analarining etnomadaniy jarayonlarga ta’siri (XIX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari)”. Tarix fanlari sohasida falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2022.